



ALEKSANDR FAYNBERG IJODIDA QORALAMA QADRI

Esonaliyeva Xusnida Shavkatjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

3-ingliz fakulteti 2-bosqich talabasi

husnidaesonaliyeva@gmail.com

Ilmiy rahbar: Umarov Bobur Norboyevich

Ingliz tili integrallashgan kursi

3-kafedrasida katta o'qituvchisi

boburumarov80@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Aleksandr Faynbergning ijodi tahlil qilinadi, xususan, uning “Qoralamaga qasida” she’ri asosiy e’tibor markazida bo’ladi. Maqolada she’rning g’oyasi, badiiy vositalari va falsafiy qatlamlari yoritiladi. Shuningdek, ushbu to’plamning yaratilishida Sirojiddin Sayyid va Rustam Musurmonning roli ham muhimligi ko’rsatib o’tiladi.

Kalit so’zlar: Aleksandr Faynberg, “Qoralamaga qasida”, Sirojiddin Sayyid, Rustam Musurmon, tarjimonlik, she’riy to’plam, umuminsoniy g’oyalar, yuksak badiiy mahorat, ijodiy jarayon.

Annotation. This article analyzes the work of Aleksandr Faynberg, focusing particularly on his poem “Qoralamaga qasida”. The main idea, artistic devices, and philosophical layers of the poem are discussed. In addition, the article highlights the significant role of Sirojiddin Sayyid and Rustam Musurmon in the creation of this poetry collection.

Keywords: Aleksandr Faynberg, “Qoralamaga qasida”, Sirojiddin Sayyid, Rustam Musurmon, translation, poetry collection, universal ideas, high artistic mastery, creative process.

Аннотация. В данной статье анализируется творчество Александра



Файнберга, с особым вниманием к его стихотворению «Ода черновику»(Qoramaga qasida). Рассматриваются основная идея, художественные средства и философский слой произведения. Также подчеркивается значительная роль Сироджиддина Сайида и Рустама Мусурмона в создании этого поэтического сборника.

Ключевые слова: Александр Файнберг, «Ода черновику»(Qoramaga qasida), Сироджиддин Сайид, Рустам Мусурмон, перевод, поэтический сборник, общечеловеческие идеи, высокое художественное мастерство, творческий процесс

Kirish.

Rus va o'zbek she'riyatida porlagan yorqin yulduzlardan biri Aleksandr Faynberg ijodining dolzarbligi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Aksincha, uning she'rlariga bo'lgan qiziqish kundan kunga oshib bormoqda. Ayniqsa inson ruhiyati, hayot falsafasi va ichki kechinmalarning shoir she'riyatida markaziy o'rinda turishi barchaning e'tiborini tortadi. Uning shu kabi tuyg'ularni o'zida mujassam etgan mashhur she'rlaridan biri - "Qoramaga qasida" she'ri bo'lib, shoirlarning ijod jarayoni va bu jarayondagi qoramalarning qadri haqida so'z boradi. Ushbu she'r mashhur tarjimon Rustam Musurmon tomonidan o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilingan, bundan tashqari Aleksandr Faynberg she'rlarini o'zbek tiliga tarjima qilib bir to'plam qilingan. Rustan Musurmon Sirojiddin Sayyid rahbarligida yaratilgan bu - "Qoramaga qasida" she'rlar to'plamining yaratilishida ham jonbozlik ko'rsatib, mas'ul muharrir va tarjimon sifatida hissa qo'shgan.

Ushbu she'riy to'plamdan yangi tarjimalar o'rin olgan. Shoir she'rlarining ruhi, ohangi, badiiy timsollari, shakli va mazmuni o'zbek tilida jaranglaydi. Milliy va umuminsoniy g'oyalar yuksak badiiy mahorat bilan tarannum etilgan she'rlar o'quvchiga hayrat va hayajon baxsh etadi. Ushbu to'plamning markazida, albatta, "Qoramaga qasida she'ri" turadi. Bu she'r juda samimiy va chuqur falsafiy ruhda yozilgan. Unda shoir ijod jarayonining ko'rinmas, lekin eng muhim bosqichini -



qoralamani ulug'laydi. Odatda odamlar tayyor, chiroyli kitobni ko'radi, lekin uning ortidagi mehnat, izlanish va ichki kurashni ko'rmaydi. Faynberg esa aynan shu "ko'rinmas bosqich" ni markazga olib chiqadi.

Ko'nglingni ochib qo'y, shoir, subhidam,

Umringda boshqacha yashama zinhor.

Mehringdan nur olsun olam va odam,

Sen yurakdan kuyla. Xudo bo'lsin yor.

Ushbu satrlar bilan boshlanuvchi she'r o'ziga mos ma'no va xususiyatlarni o'zida mujassam etadi. Bu yerda shoir bevosita ijodkorga murojaat qilmoqda. "Ko'ngilni ochish" bu yerda samimiylik, ichki dunyoni yashirmaslik kabi ma'nolarni anglatmoqda, "Subhidam" esa yangi boshlanishni ramzidir. Demak, bu misra ijodning yangi kun, yangi ilhom bilan boshlanishini anglatadi. Tong - poklik va umid belgisi. Bundan tashqari shoir hayotta ijodkor ikkiyuzlama yashamasligi kerakligini, hayotta qanday bo'lsa shunday bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi ya'ni shoirning qalbidagi mehr butun olamni yoritishi kerak. Bu yerda ijod insonlarga yorug'lik beruvchi kuch sifatida tasvirlanmoqda. Albatta, ijod ilohiy madad bilan bog'lanadi.

Toza qo'lyozmalar... Qo'yma ko'r ruju,

Ular shay, sensiz ham uchmoqqa tayyor.

Qoralamalar bor g'aladonda qulf,

Topilmas ulardek sodiq, vafodor.

Ushbu misralarda shoir ogohlantiradi: tashqi ko'rinishi chiroyli bo'lgan tayyor matnga haddan tashqari berilib ketma. Asl qadriyat boshqa joyda. Qoralama - ijodkorning eng yarin do'sti. U shon-shuhrat talab qilmaydi, lein ijodning haqiqiy guvohi bo'lib qoladi.

Kitobing qon-joni undan iborat.

U – ijod, u – mehnat, u – sardor va bosh.

Agar qozonsang ham keyin shon-shuhrat,

Qoralamalarga to'karsan ko'z yosh.



Qon-joni” — hayot manbai, ruh, mohiyat. Shoir aytmoqchi: kitobning tirikligi qoralamadan boshlanadi. Tayyor nusxa — tashqi shakl, qoralama esa — uning ruhi. Qoralama ijod jarayonining markazi sifatida tasvirlanadi. U faqat qog‘oz emas, balki jarayonning bosh qahramoni. Shuningdek, shoir kelajakni tasvirlaydi. Ijodkor mashhur bo‘lishi mumkin. Ammo bu shon-shuhrat - natija xolos. Nega unda qoralamaga "Ko‘z yosh to‘kish" kerak? Chunki, qoralama - ijodning og‘ir kunlarning guvohi, ilhomli, iztirobli lahzalar aynan unda yashiringan. Shon -shuhratga erishgach, ijodkor o‘sha oddiy qoralamalarni sog‘inadi. darhaqiqat, bu misralar she‘rning falsafiy cho‘qqisini namoyon etadi.

Qoralama... Sirdan kamtarin, faqir,

Biroq qasos olar qilsang xiyonat.

Ular harflarnimas, so‘znimas, axir,

Yulduzlar tovushin aylar bashorat.

Shoir qoralamaning tashqi ko‘rinishi oddiy ekanini ta’kidlaydi. Lekin bu faqat tashqi holat. Shoir aytmoqchiki, qoralamadagi harflar kelajakdagi buyuk asarning bashoratidir. U oddiy emas - u osmon bilan bog‘langan.

Shoirlar, avaylab asrang doimo,

Ularda Xudoga sirli rishta bor.

Yodlab olish mumkin she‘rlarni, ammo

Ilhom lahzalarin qaytarmoq dushvor.

Bu misralar orqali shoir shuni eslatadi, ilhom kelgan paytni qadrlash kerak, chunki u qaytmasligi mumkin. Bu ijodning eng nozik nuqtasi. Qoralama yoki ilhom oddiy jarayon emas, u ilohiy manbadan keladi. Ijodkor va Yaratgan o‘rtasida ko‘rinmas ruhiy aloqa bor. demak, ilhom bu - takrorlanmas ne‘mat.

Xulosa.

Aleksandr Faynbergning "Qoralamaga qasida" she’ri shoir ijodining eng go‘zal va chuqur ma’noga ega bo‘lgan she’rlaridan biri hisoblanadi. Ushbu she’rda shoir bir ijod mahsulining yaratilish jarayonini xuddi hayot sinovlariga qiyoslaydi,



ya'ni bir she'r tayyor holatga kelgunga qadar qanchalar qiyinchiliklarni boshdan o'tkazishi bayon qilib o'tiladi, ammo ko'pchilik ijodkorlar asar yaratilganidan so'ng bu bosqichni unutib yuboradilar. Shoir esa bunday qilmaslikni ta'kidlaydi, chunki o'g'ir paytda insonning yonida bo'ladigan yaqinlarini "qoralama" ga qiyoslaydi va uni Xudo tomonidan berilgan ne'mat ekanini aytib o'tadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Faynberg Aleksandr Arkadevich <https://share.google/gHCcDM0p55zz2Ep0T>
2. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>
3. Aleksandr Faynberg. Qoralanmaga Qasida (2021) | PDF <https://share.google/FiXWU5RVfDT5EOSvS>
4. <https://share.google/iIN7n43JtMjQKIork>